Xalq so‘zi

O‘zbekiston — kelajagi buyuk davlat

2024-YIL — YOSHLAR VA BIZNESNI QO`LLAB-QUVVATLASH YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan ● WWW.XS.UZ ● E-mail: Info@xs.uz ● 2024 yil 15-noyabr, № 235 (8858) Juma

Saytimizga o‘tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.

AHOLI SALOMATLIGINI SAQLASH — UZLUKSIZ JARAYON

Prezident Shavkat Mirziyoyev 14-noyabr kuni kasalliklarni erta aniqlash va samarali davolashga oid takliflar taqdimoti bilan tanishdi.

Davlatimizning ijtimoiy siyosatida sog‘liqni saqlash sohasi katta o‘rin egallaydi. So‘nggi yetti yilda bu tizimga ajratilayotgan mablag‘lar 6 karra oshirilgan. Oldin faqat Toshkentda bajarilgan 400 dan ortiq yuqori texnologik amaliyotlar bugun viloyat va tumanlarda ham o‘tkazilyapti.

Kasalliklarni erta aniqlash maqsadida onkologiya, endokrinologiya, kardiologiya markazlari hududlarda skrining tekshiruvlari olib boryapti. Masalan, 1 million 700 ming nafar ayol skrining qilinib, 49 mingida saraton oldi kasalliklari topilgan. Bu yil yarim yillikda 122 ming nafar aholida yurak-qon tomir va qandli diabet erta bosqichda aniqlangan.

Aholi salomatligini saqlash — uzluksiz jarayon. Sohadagi tahlil va talabdan kelib chiqib, muhim yo‘nalishlar bo‘yicha takliflar tayyorlangan. Taqdimotda shular haqida so‘z bordi.

Ma’lumki, davolashdagi eng katta muammo — kasallikning kech yuzaga chiqishi. Shu bois Prezidentimiz tashabbusi bilan Qashqadaryoda, tajriba tariqasida, onkologiya bo‘yicha har bir erta aniqlangan holat uchun tibbiyot brigadalariga 2 million so‘mdan mukofot berish joriy qilindi. Natijada oilaviy shifokorlar o‘z mahallasidagi 51 nafar ayol va bolalarda shunday belgilarni aniqladi. Buning uchun 102 million so‘m mukofot puli berilib, kech bosqichda sarflanadigan 8 milliard so‘m mablag‘ tejalgan.

Tahlillarga ko‘ra jami onkologik kasalliklarning o‘rtacha 20 — 25 foizi ayollardagi ko‘krak bezi va bachadon saratoniga to‘g‘ri keladi. Shu bois bu borada skrininglarni kengaytirish va ularning reestrini yuritish rejalashtirilmoqda.

Shuningdek, gematologiya, kardiologiya, endokrinologiya kasalliklarini erta aniqlash va ularni davolash bo‘yicha uch yillik dasturlar bu yil yakuniga yetadi. Mutasaddilarga erishilgan natijalarni hisob-kitob qilib, ularning muddatini uzaytirish bo‘yicha ko‘rsatma berildi.

Tibbiyot muassasalariga markazlashgan holda dorilar xarid qilishda ham kamchiliklar bor. Ba’zi shifoxonalarda talabga nisbatan kam olingan bo‘lsa, ba’zilarida dorilar ortib qolgan.

Shu bois dori vositalari va tibbiy buyumlarni o‘n besh oylik talab asosida xarid qilish tizimi taklif etilmoqda. Bunda kelgusi yillar uchun ehtiyojlar 1-avgustdan kechikmasdan, Davlat byudjeti parametrlari bilan bir vaqtda shakllantiriladi.

Shuningdek, Sog‘liqni saqlash vazirligi huzurida “Xaridlar markazi” va uning 13 ta hududiy filiali tashkil qilinadi. Markazga 2025-yil 1-yanvardan boshlab, original dori vositalari va yopiq turdagi laborator uskunalar uchun sarflov vositalarini bevosita ishlab chiqaruvchidan to‘g‘ridan-to‘g‘ri xarid qilishga ruxsat beriladi.

Yana bir taklifga ko‘ra donorlarni qo‘llab-quvvatlash kengaytiriladi. Jumladan, “O‘zbekiston Respublikasi faxriy donori” ko‘krak nishoni olganlarga biryo‘la beriladigan pul mukofoti bazaviy hisoblash miqdorining 5 baravaridan 15 baravarigacha oshiriladi. Ularga jamoat transportidan bepul foydalanish huquqi beriladi, davlat sihatgohlarida davolanish navbatsiz bo‘ladi.

Ushbu yangi tizim kelgusi yil 1-yanvardan joriy qilinishi belgilandi.

Mamlakatimizda sanitariya va fitosanitariya choralari bo‘yicha Jahon savdo tashkilotini xabardor qilish tartibini yo‘lga qo‘yish masalasi ham ko‘rib chiqildi.

O‘zA.

IXTIROCHI VA TADBIRKORLAR UCHUN IMKONIYAT

Poytaxtimizda “Barqaror rivojlanish uchun innovatsiyalar” mavzuiga bag‘ishlangan xalqaro innovatsion g‘oyalar haftaligi ochildi.

“O‘zekspomarkaz” konferensiyalar zalida o‘z ishini boshlagan mazkur haftalik Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Innovatsion rivojlanish agentligi tomonidan tashkil etilgan bo‘lib, rasmiy ochilish marosimi kuni kecha o‘tdi. Unda hukumat a’zolari, xorijiy va mahalliy ekspertlar, innovatsion g‘oya yetakchilari hamda yosh ixtirochilar ishtirok etdi.



Yunus BO‘RIYEV olgan surat.

“InnoWeek — 2024”

Unda so‘zga chiqqan O‘zbekiston Bosh vazirining o‘rinbosari Zulayho Mahkamova, Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vaziri Qo‘ng‘irotboy Sharipov va boshqalar haftalik xorijiy va milliy ekspertlar, tahlilchilar o‘rtasida ilm-fan va innovatsiyalar sohasidagi islohotlar, erishilgan yutuqlar va galdagi vazifalar yuzasidan fikr almashish uchun muhim maydon bo‘lib xizmat qilishini qayd etdi.

Xorijiy ilmiy-innovatsion markazlar, investitsiya jamg‘armalari, texnologik agentliklar, texnoparklar va biznes inkubatorlar ishtirokida bo‘lib o‘tayotgan mazkur tadbir mavjud innovatsion texnologiyalar bilan tanishish barobarida sarmoyadorlarni jalb etish va ishonchli hamkorlar topish uchun qulay muhit yaratayotir.

Mazkur haftalikda Xitoy, Malayziya, Tailand, Hindiston, Eron, Turkiya, Germaniya, Janubiy Koreya, Ispaniya, Qozog‘iston, Rossiya va Qirg‘iziston kabi dunyoning 30 ga yaqin davlatlaridan 150 dan ortiq vakillar, elchilar ishtirok etmoqda.

2



18-noyabr — O‘zbekiston Respublikasi Davlat bayrog‘i qabul qilingan kun

MILLIY G‘URUR VA TINCH-OSUDA HAYOTIMIZ TIMSOLI

Yangi O‘zbekiston suverenitetini belgilaydigan ramzlar orasida davlat bayrog‘i alohida o‘rin tutadi. Zero, u xalqning o‘tmishi va buguni, mustaqilligi, tinchligi hamda barqarorligining timsoli hisoblanadi. Yer yuzining sarhadlarida mustaqil O‘zbekiston davlati borligini anglatib, o‘zida milliy-madaniy an’analarimizni mujassamlashtiradi.

Yuksak did va katta mahorat bilan puxta ishlangan bayrog‘imiz sayyoramiz mamlakatlarining davlat ramzlari orasida alohida hurmat va ehtiromga sazovordir.

Buyuk sohibqiron bobomiz Amir Temur davlat ramzlariga alohida e’tibor qaratgan. Jang maydonida bir lashkar omon qolsa ham Vatan bayrog‘ini baland tutishga farmon bergan. Bu bayroq ostida buyuk el birlashdi, u barpo etgan ulug‘ saltanatni dunyo tan oldi.

TuQini jonidan ortiq asragan To‘maris, Spitamen, Muqanna, Temur Malik, Amir Temur, Jaloliddin Manguberdi kabi o‘nlab sarkardalar hayoti ham bugun avlodlarimizga katta ibrat, desak, yanglishmaymiz. Aslida Vatan bayrog‘ini ko‘zga surtish, uni to‘tiyo qilish shu tuproq, shu zaminni sevish, uning uchun jonini bag‘ishlashga tayyor bo‘lish degani.

Shu bois har safar muqaddas bayrog‘imizga boqib o‘tmishi-yu kelajagi buyuk, osmoni musaffo, qalbi pok, bag‘rikeng, vujudidan hayotiy qudrat ufurib turgan tinchlikparvar xalqimizning ulug‘vor qiyofasini, ajdodlarimiz zakovatidan kuch olgan buyuk davlat qudratini his etamiz.

Bugun BMT binosida unga a’zo bo‘lgan 193 mustaqil davlat qatori O‘zbekiston bayrog‘ining hilpirab turgani, 2018-yildan yana bir xalqaro tuzilma — Turkiy davlatlar tashkilotidan ham bayrog‘imiz o‘rin olgani barchamizga faxr bag‘ishlaydi.

Bundan 33 yil muqaddam, ya’ni 1991-yilning 18-noyabrida qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasining Davlat bayrog‘i to‘g‘risida”gi Qonunga ko‘ra bayrog‘imiz davlat suverenitetining ramzi bo‘lib qoldi. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda ham O‘zbekiston Respublikasi qonun bilan tasdiqlanadigan o‘z davlat ramzlari — bayrog‘i, gerbi va madhiyasiga egaligi, davlat ramzlari davlat himoyasida ekanligi belgilab qo‘yildi.

2

SENATORLAR “MAHALLA YETTILIGI” FAOLIYATINI TAHLIL QILISHDI

Oliy Majlis Senatining Mudofaa va xavfsizlik masalalari qo‘mitasi a’zolari Andijon viloyatining bir qator tumanlarida “mahalla yettiligi” faoliyati bilan tanishdi va aholi murojaatlarini o‘rgandi.

O‘rganish

Uchrashuvlarda asosiy e’tibor mahallalarda kriminogen vaziyatni yaxshilash, “mahalla yettiligi” tomonidan amalga oshirilayotgan ishlar hamda hududlardagi kuz-qish mavsumiga tayyorgarlik jarayonlariga alohida e’tibor qaratildi.

Jumladan, Senat a’zolari Izboskan tumani mas’ullari, “mahalla yettiligi” vakillari va hokim yordamchilari bilan birgalikda Gudur va Toshloq mahallalarida bo‘lib “mahalla yettiligi”ning jinoyatchilik hamda huquqbuzarliklarning oldini olishga doir faoliyatini tahlil qildi.

O‘rganishlar davomida “mahalla yettiligi”ga aholining muammolarini mahallabay, xonadonbay, fuqarobay tarzda kuzatib, samarali yechim topish va mahalla osoyishtaligini ta’minlashda jamoatchilik vakillari ishtirokini faollashtirish yuzasidan taklif va tavsiyalar berildi.

Shuningdek, senatorlar aholi vakillari bilan uchrashib, ularni qiynayotgan muammolar yuzasidan muloqotlar o‘tkazdi. Shu jarayonda aholi vakillari tomonidan hududlarda kuz-qish mavsumida suyultirilgan gaz ballonlari ba’zan vaqtida yetkazib berilmasligi, ichki yo‘llar ta’mirtalab bo‘lib qolganligi bildirildi.

Murojaatlarda ko‘rsatib o‘tilgan masalalar senatorlar tomonidan keng o‘rganilib, hokimlik mutasaddilariga tegishli ko‘rsatma va tavsiyalar berildi.

“Xalq so‘zi”.

Qonunchilik palatasida

LOYIHADA IJTIMOIY SOHA USTUVOR

Aholini ijtimoiy himoya qilish tizimini takomillashtirish, sohaga Davlat byudjetidan ajratiladigan mablag‘lar miqdorini oshirish va qo‘shimcha resurslarni jalb etish, ijtimoiy himoya dasturlari qamrovini kengaytirish bo‘yicha izchil islohotlar olib borilmoqda.

2025-yilgi Davlat byudjeti loyihasida ham barcha soha qatori ijtimoiy yo‘nalishlarga keng o‘rin berilgan. Xususan, kelgusi yil byudjet xarajatlarining 52 foizi yoki 178 trln. so‘mi ijtimoiy soha xarajatlarini tashkil etayotgani e’tiborga molik.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Byudjet va iqtisodiy masalalar qo‘mitasi tomonidan qonun loyihasi muhokamasiga bag‘ishlab o‘tkazilgan yig‘ilishda bu haqda alohida ta’kidlandi.

Muhokama davomida deputatlar byudjet siyosatida aholi farovonligini ta’minlash yo‘lida olib borilayotgan ishlarga alohida e’tibor qaratdi. Jumladan, ijtimoiy himoyaga ajratilayotgan mablag‘larning manzilliligini kuchaytirish va samaradorligini ta’minlash, byudjet tashkilotlari xodimlarining ish haqi, pensiya va nafaqalarning har yilgi inflyatsiya darajasidan kam bo‘lmagan miqdorlarda oshirib borilishi xalq vakillari tomonidan ijobiy baholandi.

Shuningdek, Davlat byudjeti loyihasida kam ta’minlangan oilalarga “Ijtimoiy himoya yagona reestri” orqali to‘lanadigan nafaqalar bo‘yicha amaldagi mezonlarni takomillashtirish va nafaqalarning manzilliligini oshirishga doir ishlarni davom ettirish rejalashtirilmoqda.

2

Munosabat



SUV MASALASI — BARQARORLIK MASALASI

7-noyabr kuni bo‘lib o‘tgan qishloq xo‘jaligida suv va energiya manbalaridan oqilona foydalanish hamda yo‘qotishlarni kamaytirish chora-tadbirlariga bag‘ishlangan videoselektor yig‘ilishida davlatimiz rahbari tomonidan bu sohadagi yutuqlar va natijalar bilan bir qatorda mazkur yo‘nalishga doir dolzarb muammolar qayd etilib, ularni amalga oshirish bo‘yicha ustuvor vazifalar belgilandi, aniq ko‘rsatmalar berildi.

Prezident yig‘ilishda hozirgi davrga kelib namoyon bo‘layotgan suv bilan bog‘liq jarayonlar mamlakatimizda hayot-mamot masalasiga aylanayotganiga alohida e’tibor qaratgani bejiz emas. Bu yurtimiz obodligi va farovonligi, xalqimizning bugungi kundagi turmushi hamda sohalarning barqaror rivojlanishi uchun muhim zaruratning haqiqiy ifodasidir. Ushbu sohadagi masalalarning biz uchun nihoyatda muhim ahamiyatga ega ekanligini tasdiqlovchi va hozirgi davrda bu jabhadagi faoliyatimizning asosiy yo‘nalishlarini belgilab beruvchi tarixiy omillar mavjud.

3



“QUYOSHLI XONADON” DASTURI — AMALDA



Fakt va raqamlar

*Shu yilning yanvar — sentyabr oylarida **6 ming** nafardan ortiq jismoniy shaxslar **“Quyoshli xonadon”** dasturidan foydalanib, elektr tarmoqlariga o‘tkazilgan quyosh energiyasi uchun Davlat byudjetidan **8,9 milliard** so‘m (8,9 million kVt/soat) subsidiya oldi.*

Subsidiyaning eng katta qismi quyidagi hududlarga to‘g‘ri kelmoqda:

— Xorazm viloyati — **2,1 mlrd. so‘m;**
— Qoraqalpog‘iston Respublikasi — **1,5 mlrd. so‘m;**
— Toshkent shahri — **1,2 mlrd. so‘m.**

Manba: Energetika vazirligi.

LOYIHADA IJTIMOIY SOHA USTUVOR

1 Pensiya jamg‘armasiga pensiya va boshqa to‘lovlarni o‘z vaqtida moliyalashtirishni ta’minlash maqsadida jamg‘armaning daromadlari va xarajatlari o‘rtasidagi salbiy tafovutni (yetishmovchilikni) qoplash uchun Davlat byudjetidan 18,5 trln. so‘m transfert mablag‘lari yo‘naltirilishi ko‘zda tutilgani, 2025-yil yakuniga qadar esa 4,3 mln. nafar pensiya oluvchi va o‘rtacha pensiya miqdori 1 645,2 ming so‘mni tashkil etishi kutilayotgani xalq vakillarining e’tiborida bo‘ldi.

Munozaralarda deputatlar kam ta’minlangan oilalarga manzilli yordam ko‘rsatish, fuqarolarning daromadlarini izchil oshirib borish va boshqa shu kabi masalalar bo‘yicha o‘z fikr-munosabatlarini bildirdi. Ayrim masalalar yuzasidan ishchi guruh a’zolariga savollar bilan yuzlanishdi.

Ishchi guruh a’zolari ko‘tarilgan masalalar o‘rinli ekanini aytib, ushbu savollar yuzasidan atroflicha tushuntirish berib o‘tdi.

Quyi palatada qonun loyihasi konsepsiyasi muhokamasiga bag‘ishlangan yig‘ilishlar davom etmoqda.

“Xalq so‘zi”.

MILLIY G‘URUR VA TINCH-OSUDA HAYOTIMIZ TIMSOLI



1 Bayrog‘imizdagi har bir rang, har bir belgi o‘ziga xos ma’noga ega bo‘lib, undagi moviy rang kuch-qudratni, tinchlik va barqarorlikni o‘zida aks ettiradi. Oq rang poklik, beg‘uborlikni ifodalab kelgan bo‘lsa, yashil rang yasharish va yangilanish ramzi, shuning barobarida ona tabiatimiz, asriy qadriyatlarimiz, iymon-e’tiqodimiz timsoli sanaladi. Qizil chiziqlar tomirimizdagi ajdodlar qoni — mangulik nishonasi.

Bugun xalqimizning, yoshlarimizning bayroqqa, milliy ramzlarga bo‘lgan mehri, sadoqati oshib borayotganini ko‘rib faxrlanamiz. 2023-yil 7-iyul kuni imzolangan “O‘zbekiston Respublikasining Davlat bayrog‘i to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish haqida”gi Qonun esa yoshlarda Vatanga nisbatan faxr-iftixor va mehr-muhabbat tuyg‘ularini yanada kuchaytirishga xizmat qilmoqda.

Binobarin, mazkur hujjat bilan Davlat bayrog‘idan sport musobaqalarida, ommaviy jismoniy tarbiya, madaniy va boshqa ommaviy tadbirlarda, oilaviy bayramlarda, xotiraviy sanalarni nishonlashda va boshqa hollarda ham bayrog‘imizga nisbatan yuksak hurmatni ta’minlagan holda ulug‘lashga ruxsat berilib, bayroq tasviri tushirilgan belgilardan foydalanishda aholiga keng imkoniyatlar yaratildi. Xususan, bayroqdan jamoat joylarida, binolar va boshqa obyektlarda, yashash yoki ish joylarida, transport vositalari salonida, rasmiy xalqaro tadbirlarda, harbiy yoxud boshqa davlat xizmatida bo‘lgan shaxslar kiyim-boshida va farqlovchi nishonlarida, xalqaro sport musobaqalari hamda O‘zbekiston chempionatlari uchun sport kiyim-boshini tayyorlashda foydalanish mumkinligi belgilandi.

Bugun bayrog‘imiz davlat idora va muassasalari, o‘quv yurtlari, O‘zbekiston a’zo bo‘lgan xalqaro tashkilotlar, chet ellardagi elchixona va doimiy vakolatxonalarimiz peshtoqida hilpirab turibdi. Jumladan, turli bayram tantanalarida, mamlakatimiz a’zolari qatnashayotgan xalqaro miqyosdagi siyosiy, madaniy-ma’rifiy tadbirlarda, nufuzli sport musobaqalarida ham u Vatanimiz sha’ni, xalqimiz shavkatini yorqin aks ettirmoqda.

Masalan, xalqaro sport bellashuvlarida g‘alaba qozongan sportchilarimiz sharafiga yurtimiz bayrog‘i baland ko‘tarilgan lahzada har birimiz cheksiz hayajonga tushamiz, hech kimdan kam emasligimizdan faxrlanamiz. Xususan, joriy yilda Parijda bo‘lib o‘tgan XXXIII yozgi Olimpiadada ham sportchilarimiz Olimpiya o‘yinlari tarixida yangi rekord natija — 8 ta oltin, 2 ta kumush, 3 ta bronza medalni qo‘lga kiritib, yurtimiz bayrog‘ini ko‘klarga ko‘targani ham har birimizga faxr va iftixor bag‘ishlaydi.

...Davlatimiz bayrog‘i yurtimizda hukm surayotgan tinchlik-osoyishtalik, millatlararo totuvlik, qut-baraka, biz erishayotgan bemisl yutuqlar va kelajakka bo‘lgan mustahkam ishonch ramzi sifatida mag‘rur hilpirayveradi. Zotan, ozodlik, tinchlik va barqarorlik timsoli bo‘lgan bayrog‘imiz bor ekan, millat, davlat va Vatan bor.

Shahnoza XOLMAHAMATOVA,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati.

IXTIROCHI VA TADBIRKORLAR UCHUN IMKONIYAT

1 Haftalik doirasida xalqaro innovatsion mahsulotlar ko‘rgazmasida 512 ta mahalliy, 34 ta xorijiy tashkilot tomonidan “Tijoratlashtirish”, “Startap” va “Ilmiy-tadqiqot” loyihalarini amalga oshirish natijasida yaratilgan innovatsion mahsulotlar namoyish qilinmoqda.

Tadbir 16-noyabrgacha davom etadi.

So‘z — anjuman ishtirokchilariga

Viparat DEONG,
Tailand Milliy tadqiqot kengashi (NRCT) ijrochi direktori:



— “InnoWeek — 2024” tadbirida ilk bor “NRCT” nomidan ishtirok etmoqdaman. Ushbu tadbir ixtirochilar va yangilik yaratishga intilayotgan tadbirkorlarga o‘z kashfiyotlarini namoyish etish, yangi mahsulot va xizmatlarni taqdim qilish hamda potensial biznes hamkorlari bilan mustahkam aloqalar o‘rnatish uchun keng imkoniyat yaratadi.

Ayonki, har qanday sohada rivojlanish hamda raqobat uchun ilm va innovatsiya zarur. Shu ma’noda, haftalik davomida an’anaviy tarzda innovatsion ishlanmalar ko‘rgazmasi tashkil etilishi ayni muddao bo‘ldi. Qolaversa, yoshlarning texnologik tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash uchun alohida maydonda qator musobaqa va interfaol tadbirlar o‘tkazilayotgani e’tiborga molikdir.

Akiko FUJII,
BMT Taraqqiyot dasturining O‘zbekistondagi doimiy vakili:



— Joriy yilgi “InnoWeek — 2024” mavzusi juda dolzarb va ahamiyatli ekanini ko‘rib menda ham yangi g‘oyalar tug‘ildi. Bilasiz, innovatsiya o‘z-o‘zidan amalga oshadigan ish emas, u muayyan maqsadga xizmat qiladi. Shu jihatdan, aynan barqaror rivojlanish borasidagi innovatsiyalar bizni ezgu maqsadlar sari birlashtiradi.

Tadbirda iqtisodiy yuksalish va yaxshi turmush sharoitlari yaratish, insoniy qadriyatlarni qo‘llab-quvvatlash, tabiiy resurslarni asrash va ulardan oqilona foydalanish, barqarorlik va osoyishtalikni ta’minlash borasidagi o‘z Qoyalarimni ilgari surmoqchiman. Demak, biz bu yerda inson manfaatlari va umumiy maqsad yo‘lida birlashib, yangi Qoyalarni yaratamiz.

Akram HAMROQULOV
(“Xalq so‘zi”).

INNOVATSIYA VA INVESTITSIYA — TARAQQIYOT KAFOLATI

Yangi O‘zbekiston iqtisodiyotini jadal rivojlantirish, uning barqaror o‘sishini ta’minlash sohaga butunlay yangicha yondashuvni taqozo qilmoqda. Masalan, mustaqillikning dastlabki davrida, ya’ni 1991 — 2000-yillarda mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi og‘ir ahvolda edi. Intellektual salohiyat asosida innovatsion faoliyatni moliyalashtirish ishlari deyarli to‘xtatib qo‘yildi. O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining bir qator ilmiy-tekshirish institutlari yopildi. 2017-yilgacha har yili O‘zbekistonda innovatsion faoliyat uchun Davlat byudjetidan ajratiladigan mablag‘ 0,2 foizdan oshmasdi.

Nuqtai nazar



Bugun-chi? Bugun vaziyat tamoman o‘zgardi. 2017-yilning noyabr oyida Prezident Farmoni asosida O‘zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligining tashkil etilishi tarixiy voqea bo‘ldi, desak, adashmaymiz. Lekin afsuski, vazirlikning boshqaruv va tashkiliy tizimi shakllantirilib, zarur bo‘lgan mutaxassislar bilan ta’minlangan bo‘lsa-da, Davlat byudjetidan ajratilgan mablag‘lar asosida bajariladigan ilmiy loyihalar borasidagi siljishlar hozirgacha katta qiyinchiliklar bilan bo‘lyapti. To‘g‘ri, o‘tgan davrda ma’lum darajada ijobiy ishlar amalga oshirildi. Ammo bularni tub o‘zgarishlar, deb baholash qiyin.

Masalan, fundamental loyihalarni bajarish muddati 4 yil, amaliy loyihalar uchun 2 yil (sobiq ittifoq davrida 5 va 3 yil) edi. Fikrimizcha, ilmiy loyihalarni bajarish muddati differensial yondashuv asosida, yechilishi kerak bo‘lgan muammoning murakkablik darajasi, tadqiqot uchun ish hajmi, ilmiy tadqiqot olib borilayotgan tarmoqning o‘ziga xos xususiyatlari inobatga olingan holda belgilanishi yaxshi natijalarga olib keladi. O‘simlikshunoslik, genetika va laboratoriya bilan bog‘liq uzoq muddat talab qiladigan kimyo sohalarida aniq natijalarga erishish uchun haqiqatda uzoq vaqt talab qilinishi inobatga olinishi lozim. Lekin ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy hamda pedagogika yo‘nalishlarida obyektiv vaqt belgilansa, tadqiqot natijalarini tezroq amaliyotda qo‘llashga imkoniyat tug‘ilardi.

Innovatsion faoliyat uchun Davlat byudjeti tomonidan moliyalashtiriladigan loyihalar mavzularini shakllantirish lozim. Bugungi kunda loyihalarni bajaruvchilar, ya’ni akademiya tizimidagi ilmiy-tadqiqot institutlari xodimlari — olimlar va oliy ta’lim tizimidagi professor-o‘qituvchilar hamda ilmiy markazlar xodimlari o‘z ilmiy salohiyatidan kelib chiqib mavjud muammolarning yechimini topishga harakat qilmoqda. Ammo ko‘p hollarda bu loyihalar real sektor, ishlab chiqarish va xizmatlar sohalarining yuqori tashkilotlari, vazirliklar bilan yetarli darajada izchil hamkorlikni yo‘lga qo‘ymasdan shakllantiriladi. Ushbu jarayonni samarali tashkil qilish uchun, fikrimizcha, birinchidan, iqtisodiyotning barcha tarmog‘i, vazirliklar o‘zlaridagi mavjud muammolarning ilmiy loyihalar mavzularini, moliyaviy ta’minotini va bajarish muddatini ko‘rsatgan holda “Ilmiy loyihalar bazasi”ni shakllantirib, Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga taqdim etsa va ushbu vazirlik yuqorida aytilgan baza axborotlarini e’lon sifatida loyiha bajaruvchi tashkilotlarga yetkazsa maqsadga muvofiq bo‘lar edi. Shunda bajarilayotgan loyihalar haqiqatda amaliyotga kerak bo‘lgan muammolarning samarali yechimini topgan natijalarni shakllantirgan bo‘lardi.

Ikkinchidan, tashabbuslari asosida oliy ta’lim tizimidagi professor-o‘qituvchilar, ilmiy-tadqiqot institutlari olimlari tomonidan ham loyiha mavzulari shakllantirilib, “Ilmiy loyihalar mavzulari bazasi” yaratilsa va mavzular internet orqali e’lon qilinsa mavjud muammolar yechimining amaliy jihatlari yuqori bo‘lar edi. Albatta, olimlar, professor-o‘qituvchilar shakllantirgan mavzular ularning haqiqatdan dolzarbligi, tarmoqqa foydaliligiga qarab buyurtmachi-amaliyotchilar bilan o‘zaro hamkorlikda bajarilishi kerak bo‘ladi.

Ilmiy loyihalarni moliyalashtirish zarurati

Bugungi kundagi ilmiy loyihalarni moliyalashtirish tizimi ham ma’lum darajada takomillashtirishni talab qiladi. Viloyatlarda o‘nlab oliy ta’lim muassasalari mavjud bo‘lib, ularda yuzlab professor-o‘qituvchilar, olimlar ishlamoqda. Ularning ilmiy faoliyatlari qoniqarsiz holda, ya’ni ko‘pchiligi turli tadbirlar bilan band bo‘lib qolmoqda. Yoki deylik viloyat OTMdan kelgan loyihalar tanlovdan o‘tmasa, ularning aksariyati ilmiy loyihalar bilan shug‘ullanmay qo‘yishi ham bor gap.

Fikrimizcha, Davlat byudjetidan innovatsion loyihalarni moliyalashtirishda uning ma’lum qismi (40 — 45 foizi) tabaqalashgan, ya’ni hududdagi muammolar, hududning ilmiy salohiyati inobatga olingan holda ajratilsa, viloyatlarni proporsional rivojlantirish ta’minlangan bo‘lar edi.

Taklifimiz shuki, viloyatlar hokimliklarida Innovatsion markaz va unda Ilmiy kengash tashkil qilinsa, hududlardagi intellektual salohiyatdan to‘liqroq, samaraliroq foydalanilgan bo‘lardi. Shuningdek, byudjetdan innovatsion faoliyatga ajratilayotgan mablag‘lardan ham oqilona foydalanishga erishilardi.

Davlatimiz tomonidan innovatsion faoliyatni yanada jadal kengaytirish maqsadida byudjet va boshqa manbalardan ko‘p miqdorda mablag‘ ajratilmoqda. 2018-yilda qo‘shimcha 100 million AQSH dollari innovatsion rivojlantirishga ajratildi. O‘tgan davrda innovatsion rivojlanishga mas’ul vazirlik, Fanlar akademiyasi, mutasaddi tashkilotlar tomonidan ushbu mablag‘lardan foydalanib qanday ixtirolar, kashfiyotlar amalga oshirildi, yuqori darajadagi yangiliklar qilinganligi haqida na televideniyeda va na matbuotda xabarlar berildi. Xalqimiz bu haqda hech narsa bilmaydi. Holbuki, erishilgan salmoqli yutuqlar, yirik loyihalar, ixtirolar matbuotda e’lon qilinsa bo‘ladi-ku!

O‘zbekistondagi oliy ta’lim muassasalarida xalqaro reytinglar bo‘yicha yuqori o‘rinni egallash uchun harakat ketmoqda. Bu borada, ko‘p bo‘lmasa ham, ma’lum natijalar bor. Xalqaro reyting talablari bo‘yicha maxsus ko‘rsatkichlar mavjud. Jumladan, oliy ta’lim muassasasining ilmiy salohiyati — ilmiy darajali professor-o‘qituvchilarning salmog‘i. Mamlakatimizda 1991-yilgacha bitta universitet, hozirgi O‘zbekiston Milliy universiteti bor edi xolos. Bugungi kunga kelib universitetlar ko‘payib ketdi, dastlab viloyatlardagi pedagogika institutlariga “universitet” maqomi berildi.

Oliy ta’lim muassasalari tarkibiy tuzilishi bo‘yicha uch xil turdan — yuqori pog‘onada universitet, keyin akademiya va institutdan iborat. Universitet bo‘lishning shartlari, talablari bo‘lib, ulardan asosiysi ilmiy salohiyat hisoblanadi va u 60 foizdan yuqori bo‘lishi, ilg‘or darajada ilmiy tadqiqot ishlari bajarilishi kerak. Tan olish joizki, Toshkent shahridagi qator yetakchi oliy ta’lim muassasalari, ayniqsa, viloyatlarda faoliyat ko‘rsatayotgan universitetlar ushbu talabga javob bermaydi.

Bilamizki, Prezidentimiz tashabbusi bilan yoshlarning ta’lim olishini ko‘paytirish maqsadida oliy ta’lim muassasalariga qabul qilish qamrovini oshirish uchun xususiy oliy ta’lim muassasalarini shakllantirishga ruxsat berildi. Bu yaxshi, ammo bunday o‘nlab xususiy universitetlar qanchalik “universitet” maqomiga, shartlariga mos keladi?

Demak, mamlakatimizda faoliyat ko‘rsatayotgan universitetlar ko‘plab muammolar yechimini topishlari lozim bo‘ladi, ayniqsa, ilmiy tadqiqot sohasiga alohida e’tibor berishi lozim. Universitet nafaqat bilim va tarbiya berish maskani, balki keng ma’noda aytsak, innovatsion faoliyat bilan shug‘ullanadigan dargoh. Xorijiy mamlakatlardagi universitetlar tarkibida o‘nlab ilmiy-tadqiqot institutlari faoliyat ko‘rsatishi ham shundan.

Qilinishi kerak bo‘lgan ishlar kam emas

Ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlar esa ikki bosqichli doktoranturada tayyorlanadi. Magistratura va doktoranturaga chet tilni bilish darajasi, ya’ni sertifikat bilan qabul amalga oshiriladi. Mamlakatimizda turli xalqaro tashkilotlar tuzilmoqda, real sektorda qo‘shma korxonalar ko‘payib bormoqda, bularda ishlash chet tilini mukammal bilishni taqozo qiladi. Shuning uchun bu talab ham juda o‘rinli.

O‘shlarimiz, ayniqsa, shahar yoshlari xorijiy tilni mukammal o‘rganishga intilyapti, maktab va litseylarda, til markazlarida shug‘ullanishmoqda. Ayniqsa, Prezident maktablarida bolalar chuqur bilim olib, xorijiy tillarni o‘rganib, dunyoning nufuzli oliy o‘quv yurtlariga o‘qishga qabul qilinayotganiga hammamiz guvohmiz. Oxirgi yillarda olis qishloqlarga qo‘shimcha moddiy rag‘batlantirishlar asosida o‘qituvchilar jalb etilyapti. Lekin bu borada hali qilinishi kerak bo‘lgan ko‘plab muammolar o‘z yechimini kutayotgani ham rost.

Ta’kidlanganidek, bugungi kunda doktorantura va magistraturaga xorijiy tilni bilish darajasini belgilovchi sertifikat bo‘yicha o‘qishga kirmoqda. Ammo amalda nima bo‘lyapti? OTMga 100 ta qabul kvotasi berilgan bo‘lsa, amalda 15 — 20 ta qabul qilinayotir. Har xil mutaxassisliklar bo‘yicha tashkil etilgan guruhlar ikkita yoki uchta magistrantdan iborat. Tasavvur qiling, katta auditoriyada o‘nlab elektr chiroqlar yongan, texnika-kompyuterlar mavjud holda professor-o‘qituvchi 2 ikki yoki uchta magistrantga 80 daqiqa dars mashg‘uloti o‘tadi va... bu qanchalik mantiqqa to‘g‘ri keladi? Real sektorda — ishlab chiqarishda mahsulot tannarxini kamaytirish uchun tiyinlarni tejashga harakat qilinadi. Ta’lim tizimida-chi? Holbuki, professor-o‘qituvchi 80 daqiqa mobaynida 20 — 30 nafar magistrantga dars berishi mumkin.

Hududlardagi OTMning ilmiy salohiyati 30 — 35 foizdan oshmaydi. Bu cheklov asosida viloyatlarda magistraturada o‘qimasa, qanday qilib ularning ilmiy salohiyatini oshirish mumkin?

Fikrimizcha, ushbu yondashuvni ham takomillashtirish kerak. Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan oliy ta’lim tizimiga qabul salmog‘i bugungi kunda 9 foizdan 30 — 35 foizga yetkazildi va kelajakda 50 foizga yetkazish strategiyasi qabul qilingan. Endilikda oliy ta’lim muassasalari salohiyatidan to‘liq foydalanib, xalqimizning oliy ma’lumotlilik darajasini oshirishimiz kerak.

Aslida innovatsiya va investitsiya mazmun-mohiyati, faoliyati jihatdan bir-biridan ajralmas iboralardir. Iqtisodiy o‘sish, mamlakatni jadal rivojlantirish darajasini aynan shu ikki faoliyat asosida amalga oshirish mumkin. Chunki innovatsiyani rivojlantirishga kapital — investitsiya zarur.

Ayni vaqtda investitsiya asosida yaratilgan texnik-texnologiyalar, kashfiyotlar innovatsiyaning mahsulotidir. Real sektorni, ya’ni ishlab chiqarish va xizmat sohalarini jadal rivojlantirish shu ikki omilga ko‘proq bog‘liqligi hukumat rahbariyatining alohida e’tiborida ekani ayni haqiqat.

Shunday ekan, O‘zbekistondagi oliy ta’lim muassasalari, ziyoli-olimlar, tadqiqotchilar, ishlab chiqaruvchi amaliyotchilar hamda tadbirkorlar oldida bu borada hal qilinishi zarur va shart bo‘lgan ulkan vazifalar turibdi. Ana shularning yechimini topish asnosida iqtisodiyotni yanada jadal rivojlantirishga zamin yaratiladi.

Nosir MAHMUDOV,
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti professori, iqtisodiyot fanlari doktori.

YANGILIKLAR *xabarlar*

TAFSILOTLAR

Moliyaviy savodxonlik burchagi

Markaziy bank tomonidan Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasida moliyaviy savodxonlik loyihasi amalga oshirilmoqda.



Mazkur loyiha yoshlar uchun doimiy seminar hamda treninglar bilan bir qatorda, kutubxonada o‘ziga xos makon — “Moliyaviy savodxonlik burchagi”ni o‘z ichiga oladi.

Kutubxona o‘quvchilari uchun moliyaviy mavzulardagi turli adabiyotlar — shaxsiy byudjet asoslaridan tortib aktivlarni boshqarish va investitsiyalashning murakkabroq jihatlarigacha, shuningdek, “Finlit.uz” loyihasining qo‘llanmalari hamda interfaol trekerlari bilan tanishish uchun zarur shart-sharoit yaratilgan.

Yo‘l-transport infratuzilmasi yaxshilanadi

Mamlakatimizda xalqaro talablar va standartlarga mos zamonaviy avtomobil yo‘llarini qurish hamda rekonstruksiya qilish, avtomobil yo‘llari tarmog‘ini rivojlantirish, shuningdek, milliy yo‘l-transport infratuzilmasini yanada takomillashtirish maqsadida qator loyihalar amalga oshirilmoqda.

Bu boradagi ishlar davomi sifatida “D 213 “Urganch — Xonqa — Hazorasp — Amudaryo daryosi — A380” avtomobil yo‘lining 84 km. qismi rekonstruksiya qilinadigan bo‘ldi.

Davlatimiz rahbarining tegishli qarori doirasidagi ushbu loyihaning umumiy qiymati 294,1 mln. dollar. Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki tomonidan 18 yil muddatga 238 mln. dollar qarz ajratiladi.

Loyiha doirasida maqbullashtiriladigan va iqtisod qilinadigan mablag‘larni (taxminan 32,7 mln. dollar) “D 217 “Urganch — Gurlan — Mang‘it — Turkmaniston Respublikasi chegarasi” avtomobil yo‘lining 5 — 75 km. qismini qayta qurish loyihasiga yo‘naltirish ko‘zda tutilmoqda.

Ma’lumot uchun, mazkur loyiha besh yil davomida amalga oshiriladi.

“Pandemiya saboqlari va yangi tahdidlarning oldini olish”



Poytaxtimizda boshlangan O‘zbekiston infeksionistlari, epidemiologlari, parazitologlari, mikrobiologlari va virusologlarining beshinchi syezdi ana shunday nomlandi.

Sog‘liqni saqlash vazirligi xabariga ko‘ra mazkur tadbirda Rossiya, AQSH, Germaniya, Fransiya, Xitoy, Janubiy Koreya, Belarus, Hindiston, Ozarbayjon, Ukraina hamda Qozog‘iston kabi davlatlardan olimlar, ekspertlar qatnashmoqda.

Tadbir yuqumli kasalliklarga qarshi kurashning dolzarb muammolarini hal etish, ilg‘or tajriba almashish, infeksiyalarni davolash va oldini olish bo‘yicha yangi yondashuvlarni ishlab chiqish, shuningdek, xalqaro hamkorlikni kengaytirish uchun infeksionistlar, epidemiologlar, virusologlar hamda boshqa mutaxassislarning harakatlarini birlashtirish maqsadida uyushtirildi.

Erta nikoh bo‘yicha eng past ko‘rsatkich

Erta nikoh bo‘yicha eng past ko‘rsatkich O‘zbekistonda (3,4 foiz) bo‘lib, so‘nggi o‘n yil ichida bu indeks sezilarli darajada kamaygan.



Bu haqda Bolalar ombudsmani rasmiy telegram kanalida ma’lum qilindi.

“Equality Now” xalqaro inson huquqlari tashkiloti tomonidan olib borilgan tadqiqotda Yevroosiyoning 7 ta davlati — Armaniston, Ozarbayjon, Gruziya, Qirg‘iziston, Rossiya, Tojikiston va O‘zbekistondagi bolalar nikohi, erta nikoh hamda majburiy nikoh muammosi har tomonlama tahlil qilingan. Bu tadqiqot inson huquqlarining buzilishiga qarshi kurashish uchun asosiy sabablar, oqibatlar, huquqiy va siyosiy asoslar hamda ehtimoliy aralashuv strategiyalarini o‘rganadi.

Qayd qilinishicha, Gruziya va Qirg‘iziston Yevroosiyoda bolalar nikohining eng katta ko‘rsatkichiga, O‘zbekiston esa eng kichik ko‘rsatkichiga ega (3,4 foiz).

Ma’lumot o‘rnida, 2018-yilda respublikamiz bo‘ylab 5123 ta erta nikoh holati qayd etilgan bo‘lsa, 2023-yilga kelib bu ko‘rsatkich 42 tani tashkil qilgan.

“Xalq so‘zi”.

O‘zbekistonda 2030-yilga borib urbanizatsiya darajasi 60 foizga oshiriladi.



SUV MASALASI — BARQARORLIK MASALASI

1 Asrlar davomida butun Yer yuzida suv hayotning asosi va insoniyat rivojlanishining bosh omillaridan biri sifatida qadrlangan. Insoniyat avlodi ko‘p asrlik sug‘orma dehqonchilik faoliyati davomida suv manbalari, buloqlarning ahvoli, sersuvligi, ekin dalalaridan uzoqligi, suv oqimining hajmi va tezligi, tabiiy-iqlim sharoitlaridan kelib chiqqan holda sug‘orish tarmoqlari va ulardagi gidrotexnik inshootlarni qurishgan va takomillashtirib borishgan.

Markaziy Osiyoda ham uzoq davrlar davomida Amudaryo, Sirdaryo, Zarafshon, Qashqadaryo va Chirchiq suvlari o‘zani bo‘ylab suv oqimi va resurslarini boshqarishni tartibga solish ishlari muntazam olib borilgan. Usta dehqonlarimiz tabiiy suv resurslaridan oqilona foydalanish tizimi va uslublarini ishlab chiqishgan. Ularni asrlar davomida muttasil sayqallab, takomillashtirib borgan. Xususan, O‘zbekiston hududida eng qadim zamonlardan bugungi kungacha inson hayoti uchun zarur bo‘lgan barcha soha suv bilan bog‘liq holda shakllangan va rivojlangani ma’lum.

Ajdodlarimiz dehqonchilikni ariqlar qazib, to‘g‘onlar qurish yo‘li bilan olib borgan, chig‘irlar, yer osti suvlaridan foydalanish uchun korizlar, mahalliy oqim suvlarini yig‘ish va ulardan foydalanish uchun sardobalar qurish yo‘llari bilan suv resurslari taqsimotini ta’minlaganlar. Sodda irrigatsiya inshootlarini qurib, sug‘orma dehqonchilikni asta-sekin rivojlantira borib bog‘-rog‘lar yaratishgan, poliz ekinlari yetishtirgan.

Shu bilan bir qatorda, bobolarimiz qadimdan yerlarni sug‘orish va ekologik sog‘lom muhitni yaratish imkoniyatlaridan foydalanmaslik salbiy oqibatlarga olib kelishini ham juda yaxshi anglab yetishgan. Bu esa, o‘z navbatida, aql-zakovat sohiblarining bunday hodisalarni chuqur o‘rganishlari, ularga qarshi kurashib, bartaraf etish usullarini qidirib topishga harakat qilishiga sabab bo‘lgan. O‘zbekiston irrigatsiyasi tarixida nafaqat gidrotexnik inshootlar alohida o‘rinni egallaydi, balki suv manbalaridan oqilona foydalanish hamda yo‘qotishlarni kamaytirish chora-tadbirlari ham nihoyatda muhim ahamiyatga egaligi xalqimizning olis o‘tmishdan bugungi kungacha bo‘lgan hayoti guvoh.

Xullas, juda qadimgi davrlardan boshlab hozirgi O‘zbekiston hududida sug‘orma dehqonchilik rivojlandi, suv inshootlarini qurish, bu bebaho boylikni asrab-avaylash va tejab sarflash an’analari shakllandi. Asrlar davomida bugun ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan boy va diqqatga sazovor tajriba paydo bo‘ldi. Shu nuqtayi nazardan, Prezidentimiz raisligida o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishi aynan ana shunday omillar va an’analarning mantiqiy davomidir, deyish uchun asoslar yetarli.

Muammolar yechimi — tejamkorlik va ilg‘or texnologiyalarda

Yig‘ilishda alohida ta’kidlanganidek, bugun dunyoda ekologik muammolar, tabiiy ofatlar ko‘payib bormoqda. Mintaqamizga suv tanqisligi xavf solmoqda. Shu bois mamlakatimizda suv tejovchi texnologiyalarni joriy qilish, bu ne’matni asrash bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

Davlat rahbarining fikricha, suv tanqisligi muammosining yagona to‘g‘ri yechimi suvni tejovchi texnologiyalarni joriy etish va ariqlarni betonlash hisoblanadi. Bugungi kunga kelib, 550 kilometr kanal va ariqlar betonlangani evaziga 200 ming gektar maydonda suv ta’minoti yaxshilangan, yiliga 450 million kubometr suv tejalmoqda. Bundan tashqari, fermer va klasterlar tomonidan ham 13 ming kilometr ichki tarmoqlar betonlangan.

O‘tgan yili texnika, ishchi kuchi va qum-shag‘al bilan ta’minlash borasida yordam ko‘rsatilgani bois betonlash xarajati 2 karra arzonlashdi. Yana bir jihat — betonlangan kanallarda suv oqimi tezlashadi. Bu kichik GESlar qurib, elektr olish uchun katta imkoniyat yaratadi. Prezident yig‘ilishda mana shu masalaga alohida e’tibor qaratdi. Ayni paytda Navoiy viloyatida 11 megavattli 148 ta shunday stansiya qurish boshlangan. Umuman, hududlarda 2 mingta mikroGES qurib, yiliga qo‘shimcha 600 mln. kilovatt elektr olish mumkin. Shundan kelib chiqib, bugungi kunda kanallarni betonlash dasturini davom ettirish rejalashtirilmoqda. 2025-yilda bu ishga 800 mlrd. so‘m yo‘naltiriladi. Yig‘ilishda mutasaddilarga bu borada xususiy sheriklik shartlarini ishlab chiqib, tadbirkorlarga e’lon qilish topshirildi.

Davlatimiz rahbari sohadagi yaxshi tajribalarni ham keltirib o‘tdi. Masalan, Jizzax viloyatining Do‘stlik tumanida suv boshqaruvini “aqlli” tizimga o‘tkazish bo‘yicha 21 mln. dollarlik loyiha yakunlangani ta’kidlanib, bu fermerlarimizda suvni hisob-kitob qilish borasida, biroz bo‘lsa-da, dunyoqarash o‘zgarganini ko‘rsatishi aytib o‘tildi. Shaffof tizim yo‘lga qo‘yilgani tufayli bu yil yerga ikki karra ko‘p suv borishi aytildi.

Biroq dolzarb muammolar saqlanib qolmoqda. Masalan, klaster va fermerlarga bir kubometr suv yetkazib berish o‘rtacha 212 so‘mga to‘g‘ri kelsa, Buxoro, Qashqadaryo va Namangan viloyatlarida bu 2-3 baravar qimmat.

Oxirgi yillarda 1 mlrd. dollar hisobiga Qarshi, Amu-Buxoro, Amu-Zang kabi yirik nasos stansiyalari modernizatsiya qilindi. Lekin o‘rta va mayda nasoslar eskiligi sababli suv tannarxi oshib ketyapti. Betonlash hisobiga yo‘qotish 10 — 15 foizga kamaygan bo‘lsa-da, 20 ta tumanda bu ko‘rsatkich yuqoriligicha qolmoqda.

Prezident noyabrdan martgacha bo‘lgan davr kanallarni betonlashtirish



uchun eng qulay ekanini ta’kidladi. Ayni paytda 18 ming kilometr magistral va 94 ming kilometr ichki kanallarni betonlashtirish zarur.

Alohida ta’kidlanganidek, respublika bo‘yicha 2 mln. gektarda suv tejovchi texnologiyalar joriy qilingani natijasida o‘tgan yilning o‘zida 2 mlrd. kubometr suv tejalgan. Lekin ayrim dalalarda o‘rnatilgan uskunalar ishlamayapti. Endilikda bu qat’iy nazoratga olinadi. Kelgusi yilda yana 500 ming gektarda suv tejovchi texnologiyalar o‘rnatiladi. Qoraqalpog‘istonda qo‘llangan lazerli tekislangan yerning har gektariga 1 mln. so‘mdan subsidiya berish tizimi endi Xorazmda ham bo‘ladi. Boshqa hududlarda ham lazerli tekislash kengaytiriladi.

Bahor va kuzdagi sel suvlarini yig‘ish — sohadagi yana bir manba. Samarqand, Qashqadaryo, Surxondaryo, Namangan, Farg‘ona va Toshkent viloyatlarida shunday inshootlar barpo qilib, 50 ming gektarda suv ta’minotini yaxshilash imkoni bor. “O‘zbekgidroenergo” AJ bu borada ikki yillik reja oldi.

Ma’lumki, bugungi kunda mamlakatda yerlarni sug‘orishda 1698 ta nasos stansiyasidan foydalanilmoqda, ular yiliga 6,8 mlrd. kVt/soat elektr energiyasi iste’mol qilib, fermer xo‘jaliklariga 32,5 mlrd. kubometr suv yetkazib bermoqda. Dehqon dalalarida 1700 ta nasos agregati yiliga 1 mlrd. kVt/soatdan ortiq elektr energiya sarflaydi. 2024-yilgi byudjetda elektr energiyasi xarajatlarini qoplash uchun 170 mlrd. so‘m yo‘naltirilgan bo‘lsa, 2025-yilda yana 250 mlrd. so‘m ajratilishi ko‘zda tutilgan.

Yig‘ilishda Prezidentimiz “2025-yil — suv xo‘jaligida “Nasoslar samaradorligini oshirish yili” bo‘ladi, deb e’lon qildi va suv xo‘jaligidagi nasos stansiyalarida elektr iste’moli 8,3 mlrd.dan 6,8 mlrd. kVt/soatga kamaygani, lekin bu yetarli emasligini ta’kidladi. Xorazmlik fermerlarning energiya tejash borasidagi tajribasini kengaytirish, shuningdek, 2 ta asosiy nasos stansiyasi uchun tender e’lon qilish topshirildi.

Prezidentimiz suv xo‘jaligi sohasida keskin o‘zgarish yasashning birdan-bir yo‘li raqamlashtirish ekanini ta’kidladi. Xususan, stansiyalarga onlayn nazorat va “aqlli” suv qurilmalari olib kelingan. Lekin ulardan olinadigan ma’lumotlarni jamlab, tahlil qiladigan axborot tizimi yo‘q. Suv iste’moli va hisob-kitobi o‘ta murakkab. Shu bois Suv xo‘jaligini raqamlashtirish markazi tuzilishi belgilandi. Unda suv iste’moli va hisobini yuritishning yagona axborot tizimi ishga tushiriladi.

Suvdan foydalanishga bo‘lgan munosabatni o‘zgartirish zaruriyati

Albatta, bu maqsadga erishish yo‘lida davlat rahbarining tashabbusi bilan amalga oshirilayotgan islohotlar

> ***Ma’lumki, bugungi kunda mamlakatda yerlarni sug‘orishda 1698 ta nasos stansiyasidan foydalanilmoqda, ular yiliga 6,8 mlrd. kVt/soat elektr energiyasi iste’mol qilib, fermer xo‘jaliklariga 32,5 mlrd. kubometr suv yetkazib bermoqda. Dehqon dalalarida 1700 ta nasos agregati yiliga 1 mlrd. kVt/soatdan ortiq elektr energiya sarflaydi. 2024-yilgi byudjetda elektr energiyasi xarajatlarini qoplash uchun 170 mlrd. so‘m ajratilgan bo‘lsa, 2025-yilda yana 250 mlrd. so‘m ajratilishi ko‘zda tutilgan.***

hal qiluvchi rol o‘ynamoqda. Biroq aholining, mutaxassislarning, barcha suvdan foydalanuvchilar va umuman, jamoatchilikning suvga hamda suv resurslaridan foydalanishga bo‘lgan munosabatini ham tubdan o‘zgartirish zarur. Bugun davlat darajasida olib borilayotgan ishlar bilan bir qatorda, har bir suvdan foydalanuvchi faol harakat qilib mamlakatning barqaror iqtisodiy rivojlanishiga o‘z hissasini qo‘shgan taqdirdagina muvaffaqiyatga erishishimiz mumkinligini anglash vaqti keldi.

Endi har bir suv foydalanuvchisiga yangi muhitda o‘z o‘rnini tezroq topishga yordam berish muhim. Bu nafaqat davlat idoralaridan, balki har bir suv foydalanuvchisidan halollik va fidoyilikni talab qiladi.

Bugun biz barcha yo‘nalishdagi faoliyatimizdan ijobiy natijalar kutishimiz va barcha chora-tadbirlardan to‘liq foydalanishimiz mumkin. Ushbu yondashuvning asosi bizning suvga bo‘lgan munosabatimizdir.

Shundan kelib chiqib, tegishli sohalar mutaxassislarining hamda suvdan foydalanuvchilarning suv tejamkorligini kuchaytirish bo‘yicha kasbiy malakasi va manfaatdorligini oshirish, sug‘orish tizimlarining texnik holatini modernizatsiya qilish, ishlab chiqarish jarayonlariga ilg‘or texnika va texnologiyalarni joriy etish, suv iste’moli me’yorlarini raqamlashtirish ishlarini jadallashtirish talab qilinadi. Mintaqa miqyosida ham bir qator masalalar kun tartibida bo‘lib, bular — suvni tejashning o‘zaro manfaatli hamkorlikka asoslangan umumiy mintaqaviy rejasi



va uzoq muddatli strategiyasi hamda mintaqaviy darajada iqlim o‘zgarishiga moslashish bo‘yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirishdan iborat.

Ko‘rinib turganidek, bugungi kunda dunyoda suv resurslari muammolari o‘zaro bog‘liqlikdagi ko‘p qirrali va ko‘p sonli noaniqliklar ta’sirida o‘ta murakkab, shu bilan birga, nafaqat alohida mamlakatlar, balki butun mintaqalar barqaror taraqqiyotini belgilab beruvchi muammolar turkumiga kiradi.

Ularning yechimi ham xususiyati kabi ko‘p qirrali (texnik, texnologik, ijtimoiy, iqtisodiy, institutsional, huquqiy, diplomatik va b.) bo‘lib, ularning asosi salohiyatni rivojlantirish, ya’ni yuqori malakali professional, ilmiy-pedagogik, muhandis-texnik va boshqaruv kadrlarini tayyorlashdan iborat.

Bu borada qariyb 100-yillik an’analarga ega ilmiy markaz — “Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti” milliy tadqiqot universiteti alohida o‘rin tutadi.

Dunyo reytinglarida peshqadam ilm markazlari safida e’tirof etilayotgan mazkur universitetning Toshkent viloyati, O‘rta Chirchiq tumanida joylashgan o‘quv-tajriba xo‘jaligida BMT Taraqqiyot dasturining “Texnik salohiyatni mustahkamlash” loyihasi doirasida talabalarning amaliyotlarini o‘tashi va yosh olimlarning ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishiga sharoit yaratish maqsadida 4,7 gektar maydonda “Zamonaviy suv tejovchi texnologiyalar o‘quv-ilmiy poligoni” barpo etildi.

Xitoyning “Huawei Tech Investment Tashkent” kompaniyasi homiyligida “Aqlli” qishloq va suv xo‘jaligi” ko‘rgazma zali ochildi. U yangi ilmiy ishlanmalarni yaratish orqali loyihalarning natijadorligi, aniqliligi va ishonchliligini ta’minlash, sohani raqamlashtirish bilan bog‘liq ilmiy faoliyatni yoshlar o‘rtasida ommalashtirish hamda ularda tahliliy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qilmoqda.

Shuningdek, o‘quv-tajriba xo‘jaligida tomchilatib, yomg‘irlatib, diskret va tuproq osti yopiq quvurlar yordamida sug‘orish texnologiyalari joriy etildi hamda g‘alla, paxta, sholi va dukkakli ekinlar urug‘lariga plazma bilan ishlov berish texnologiyasi tatbiq qilindi.

Tadqiqot natijalari tahliliga ko‘ra dukkakli ekinlarda an’anaviy ekish texnologiyasiga nisbatan plazma bilan ishlov berish texnologiyasi asosida ekinlarning hosildorligi o‘rtacha gektariga 24,5 sentnerdan ko‘proqqa oshgani kuzatildi.

Universitet o‘quv-ilmiy markazida AQSHning “Lindsay” kompaniyasining “Zimmatic” yomg‘irlatib sug‘orish mashinasi ishga tushirildi. Ushbu texnologiya yordamida 3,6 gektar maydonda g‘o‘za ekilib, yig‘ishtirib olindi. O‘rtacha hosildorlik sinov yilida gektaridan 47 sentnerni tashkil etdi.

Umuman, oliygohimiz bugungi kunda mamlakatda yaratilgan sharoitlardan foydalanib, turli sohalarda, jumladan, oliy ta’lim, ilmiy tadqiqot, innovatsion va salohiyatni rivojlantirish yo‘nalishlarida izchil amalga oshirilayotgan islohotlarning faol ishtirokchisi sifatida o‘rta va uzoq muddatli strategiya asosida ulkan marralarni o‘z oldiga qo‘ygan:

O‘zbekiston oliy ta’lim xizmatini Markaziy Osiyo davlatlariga eksport qilish tizimini yaratish;

O‘zbekistonda birinchi bo‘lib oliy ta’lim tizimida “Meta-olam” (Meta Universe) texnologiyasini joriy etish;

universitet faoliyatini xalqarolashtirish, “QS” va “THE” xalqaro global dunyo reytingida 2030-yilda “TOP — 300”, Osiyo va Tinch okean mintaqasida “TOP — 50” universitetlar ro‘yxatiga kirish;

raqamli universitetga aylantirish va universitetni yangi bosqichga olib chiqishga yo‘naltirilgan.

Universitetimiz olimlari Prezidentimiz raisligida o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishida belgilab berilgan vazifalarning ijrosini ta’minlash borasidagi yuksak mas’uliyatni anglagan holda tadqiqotlarni davom ettiradi.

Bahodir MIRZAYEV,
«Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti» milliy tadqiqot universiteti rektori, texnika fanlari doktori, professor.

O‘zbekiston ilm-fanida yangilik:

NUMIZMATIKA TARIXIGA DOIR EKSPOZITSIYA YARATILADI

O‘zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazida yurtimiz numizmatika tarixiga oid ekspozitsiyalar yaratish rejalashtirilgan. Markaz tashabbusi bilan amalga oshirilayotgan O‘zbekiston numizmatikasi tarixi loyihasi ustida Yaponiyaning Mixo muzeyi ilmiy xodimi Sergey Laptev ish olib bormoqda.

Intilish

U mazkur loyiha haqida o‘z fikrlarini bayon qildi.

— Islomdan avvalgi davrda O‘zbekiston hududida zarb qilingan tangalar namunalarining ro‘yxatini shakllantirib, shaxsiy kolleksiyalardan izlash, dunyodagi muzeylar, xalqaro auksionlarga murojaat qilgan holda ularni topish hamda nusxalarini yaratib, ekspozitsiyaga kiritish harakatlari boshlangan. Asosiy vazifamiz shu va buning asosida eng yaxshi natija sifatida bir kitob-albom chiqarish rejalashtirilgan.

O‘zbekiston hududi tarixda Buyuk Ipak yo‘lida amalga oshirilgan savdo-sotiqda muhim o‘rin tutgan. Shuningdek, Markaziy Osiyoda turli davrlarda tashkil topgan qadimgi, masalan, O‘zbekistonning ilk davlatchiligi asosi bo‘lgan Xorazm, Baqtriya, So‘g‘d kabi ilk davlatlar hukmdorlari savdo-sotiq muomalasi uchun o‘z tangalarini zarb qilganini tarixdan bilamiz. Bu esa islomgacha bo‘lgan davrda Markaziy Osiyoda, xususan, O‘zbekiston hududida qadimgi davlatchilik boshqaruvlaridayoq tangani zarb qilish mavjud bo‘lganidan dalolatdir.

Ammo bu zarb qilingan tangalar haqida yetarli ma’lumotlar mavjud emas. Shu bois O‘zbekiston numizmatikasi tarixi loyihasining amalga oshirilishi O‘zbekiston ilm-fani uchun ahamiyatli yondashuvlardan biri bo‘lishi kutilmoqda.

Qayd etish kerakki, numizmatika, bu — tangalar haqidagi fan. Ya’ni numizmatika tangalarning tasvirlari, yozuvlari, og‘irligi, qanday metalldan yasalgani, pul muomalasidagi darajasi va tanga zarb qilinish tarixini o‘rganadi.

“Xalq so‘zi”.

GERMANIYADAGI O‘ZBEK OILALARI FARZANDLARI ONA TILIDAN SABOQ OLMOQDA



Germaniyaning Frankfurt-Mayn shahridagi “Baxtiyor oila” loyihasi qoshida tashkil etilgan “Baxtiyor oila bolajon” loyihasining bir yilligi nishonlandi.

Biz va jahon

“Baxtiyor oila bolajon” loyihasi 2023-yilda hamyurtimiz Gulshoda Abduhamid tashabbusi bilan 7 — 10 yoshli bolalar uchun “O‘zbek tilini o‘rganamiz” shiori ostida yaratilgan. Germaniyaning turli hududlarida yashovchi o‘zbek oilalari uchun bunday tashabbus farzandlari chet tili bilan birgalikda o‘zining ona tilini mukammal o‘zlashtirishida ayni muddao bo‘ldi.

Loyiha doirasida haftada bir marta o‘zbek tilidan qiziqarli dastur asosida darslar o‘qitilyapti. Ayni paytda bu yerda 7 ta guruhda bolalarga o‘zbek tili o‘rgatilmoqda. Yil yakunida o‘quvchilar faxriy yorliq bilan taqdirlanadi.

Tadbir davomida bolajonlar tomonidan o‘zbek tilida yoddan she’rlar o‘qildi va qo‘shiqlar ijro etildi.

Aytish joizki, “Baxtiyor oila” loyihasi O‘zbekistonning Frankfurt-Mayn shahridagi Bosh konsulxonasi ko‘magida 2022-yil tashkil etilgan. U Germaniyada istiqomat qilayotgan o‘zbekistonlik yoshlarni birlashtirish, ularni qo‘llab-quvvatlash, xorijda ulg‘ayayotgan avlodni milliy ruhda tarbiyalash va oilaviy qadriyatlarni targ‘ib etishga qaratilgan.

Bundan tashqari, loyiha qoshida ayollarni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha “O‘zbegoyim Community” platformasi faoliyat yuritadi. Mazkur platforma Germaniyada yashayotgan 300 dan ortiq o‘zbek xotin-qizlari uchun seminar va turli madaniy tadbirlarni uyushtirmoqda.

Kelajakda “Baxtiyor oila” loyihalarini kengaytirish, ayollarni ijtimoiy va ruhiy qo‘llab-quvvatlash hamda Germaniyada ulg‘ayayotgan bolajonlarga o‘zbek tilini o‘rgatish va milliy qadriyatlarimizni singdirishga xizmat qiladigan dasturlarni kengaytirish rejalashtirilgan.

“Dunyo” AA.
Frankfurt-Mayn

Toshkentda “Better Cotton” dasturi doirasida “Barqaror paxta yetishtirish uchun strategik hamkorlikni o‘rnatish” mavzuida xalqaro forum o‘tkazildi.

www.xs.uz /xalqsuzi.uz @xs_uz

Xalq so‘zi
2024-yil 15-noyabr

JAHOLATGA QARSHI MAYDONGA CHIQQAN MA’RIFATPARVARLAR

Jadidchilik milliy harakatida Turkiston birligi eng oldi masalalardan biri sanalgan. Buni jadidchilik asoschisi Mahmudxo‘ja Behbudiyning mana bu chorlovida ham yaqqol ko‘rish mumkin: “Aziz qarindoshlarim! Musulmon birodarlar! Hammangizg‘a ma’lumdurki, Turkiston, demak — turkiy el bo‘lib, mundagi xalqning qozog‘i, qirg‘izi, sarti, o‘zbegi, turkmani, tatari — hammasi aslan... jahongir... Temurning avlodi yoki og‘a-inisidurlar”.

O‘lkamizda yashab kelayotgan tub millatlar doimo bir tan-u bir jon bo‘lib, Buyuk turonchilik g‘oyasi uchun kurashga kirgan bir paytda mustamlakachilar ular orasida urug‘-aymoqchilik, mahalliychilik tushunchalarini yoyish va ongiga singdirishga jon-jahdi bilan uringan. Uzoq yillik harakatlar behuda ketmadi, ular “aslan jahongir, Temurning avlodi yoki og‘a-inisi” bo‘lgan xalqlarni bir-biridan ayirdi, oralariga dushmanlik urug‘larini sepib qo‘ydi. Ularning turk, ozarbayjon taraqqiyparvarlari bilan aloqalarini taqiqladi.

Tadqiq

XX asr boshlarida Turkiston jadidchilik harakatida o‘zbeklar, qozoqlar, qirg‘izlar, turkmanlar, tojiklar yelkama-yelka bo‘lib faoliyat olib borganlar, ta’lim tizimini isloh qilish, siyosiy uyushmalar tuzishda turk, tatar, ozarbayjon qardoshlari bilan birgalikda harakat qilganlar.

Shu o‘rinda qayd etib o‘tish kerakki, o‘sha paytda Turkistonda yashovchi millatlar o‘zbek, qozoq, qirg‘iz, tojik, turkman deb ajratilmas, “umumiy turkistonlik” tushunchasi yetakchilik qilardi. Jadidlar turkiy til kabi fors-tojik tilini ham yaxshi bilganlar va ikki tilda ilmiy maqolalar, risolalar hamda o‘z asarlarini yaratganlar. Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Sadriddin Ayniy, Abduvohid Munzim, Saidrizo Alizoda, Vadud Mahmud va boshqa jadidlar turkiy hamda fors-tojik tilida ijod qilganlari ma’lum.

Do‘stlik va hamkorlik

Orenburg, Ufa va Qozon shaharlarida jadid maktablari ochib, bolalarga yangi usulda boshlang‘ich va o‘rta ta’lim bergan tatar ziyolilarining ko‘pchiligi mutaassib ulamolar ta’qibiga uchrab, mamlakat hududidan quvg‘in qilinganda, ularning bir qismi yurtimizga ko‘chib kelgan. Natijada Turkiston va tatar taraqqiyparvarlari o‘rtasidagi o‘zaro aloqalar hududiy jihatdan Toshkent, Namangan, Buxoro, Xiva kabi markaziy shaharlarda kechgan va rivojlanib borgan. Jumladan, Qozondan kelgan tatar muallimi Salohiddin Sirojiddinov Qo‘qonda jadid maktabi ochgan va bu maktab tez orada mashhur bo‘lib ketgan.

1904-yil noyabrda Xiva xoni Muhammad Rahimxon yorlig‘i bilan Urganch shahrida ochilgan jadid maktabida qozonlik Husayn Qo‘shayev, 1906-yili qiz bolalar uchun ochilgan maktabda Komila Qo‘shayeva muallim etib tayinlangan. Ushbu maktablarni borib ko‘rgan xon ta’lim-tarbiya ishlarining yangi usulda tashkil etilganidan xursand bo‘lgan hamda er-xotin muallimlarni mukofotlagan, shuningdek, maktabga iqtisodiy jihatdan yordam berishga qaror qilgan.

Namangandagi jadid maktablarida ham qator tatar taraqqiyparvarlari faoliyat ko‘rsatgan. Jumladan, tatar dramaturgi Abdurauf Shahidiy (Oxunzoda) va Husayn Makayev Turkiston jadidchilik harakatining yirik namoyandasi Is’hoqxon Ibrat 1906-yili To‘raqo‘rQon va Namanganda ochgan yangi usul maktablarida muallimlik faoliyatlarini boshlagan. 1908-yili Is’hoqxon Ibrat Orenburg hamda Ufa shaharlarida bo‘lib, Orenburgdan toshbosma dastgohini xarid qilib, Qo‘qonga olib kelgan va “Matbaayi Is’hoqiya”ga asos solgan. Matbaa ishlaridan yaxshigina xabardor bo‘lgan Abdurauf Shahidiyni bosmaxonaga mudir, Husayn Makayevni esa unga yordamchi qilib tayinlagan. “Matbaayi Is’hoqiya” 1910-yili Namangan shahriga ko‘chirilgach, unga 1910 — 1913-yillari Husayn Makayev, 1913 — 1917-yillari esa namanganlik noshir Muhiddin Abdusattorov mudirlik qilgan.



1908-yili Buxoro jadidlari Sadriddin Ayniy va Abdulvohid Munzim Buxoro shahrida jadid maktabi ochishdan oldin shaharda faoliyat ko‘rsatayotgan tatar muallimi Xolid Burnashevga tegishli maktabga borib, ta’lim qoidalari, darsxonani tartiblash, o‘qitilishi zarur bo‘lgan fanlar, kitob va darsliklar bilan tanishgan.

1911-yili Qo‘qonda tatar millatiga mansub er-xotin Zarif Muzaffariy hamda Komila Muzaffariya qizlar va o‘Qil bolalar uchun yangi usul maktabi ochganlar. Komila Muzaffariya o‘qituvchilikdan tashqari “El” gazetasiga muxbirlik qilgan, “Suyumbeka” jurnalining ta’sis etilishi va faoliyatida jonbozlik ko‘rsatgan.

Toshkent shahrida ham tatarlar tomonidan o‘Qil bolalar va qizlar uchun jadid maktablari tashkil qilingan. Tatar ma’rifatparvar ayoli Maymuna Fattohiddin qizi Axmatova 40 — 50 qizni alohida maktab binosi bo‘lmaganligi bois qiyin sharoitda o‘qitib kelgani uchun mahalliy boylardan Zarif hoji Ahmadjonov o‘z hisobidan maktab qurib bergan. 1916-yil kuzidan qizlar yangi binoda bilim olish imkoniyatiga ega bo‘lishgan.

Milliy matbuotni tashkil qilish

Turkistondagi ilk milliy gazeta — “Taraqqiy”ga ham tatar taraqqiyparvari Ismoil Obidiy muharrirlik qilganini aytish lozim. 1906-yil 27-iyundan 1906-yil 20-avgustiga qadar chop etilgan mazkur nashr to‘g‘risida Abdulla Avloniy shunday yozgandi: *“... Gazeta tez fursatda shunday shuhrat qozondiki, hatto gazeta muharriri bo‘lg‘on Ismoil Obidiyga Taraqqiy ismi berildi. Hozirgacha xalq Ismoil Obidiyning ismini Taraqqiy deb yuritadur... Bu gazeta o‘sha zamon gazetalari ichida eng so‘li bo‘lib, hukumat va uning ma’murlariga qarshi hujum ochdi... Istibdod hukumatining favqulodda idorasi qo‘li bilan bu gazeta o‘ldirildi. Xalq oziqsiz qolib, uzoq vaqt jimjitlik hukm surdi”.*

“Taraqqiy” gazetasi yopib qo‘yilgach, uning tatar millatiga mansub muxbir va noshirlari Abdurauf Muzaffar, No‘shiravon Yavushev, Abdulla Begi, Mahmud Budayli va boshqalar Turkistondagi boshqa milliy gazetalarda o‘z maqolalari bilan qatnashganlar. Tatar tarjimoni Nurmuhammad Usmonov “Sadoyi Farg‘ona” gazetasi tahririyatida faoliyat ko‘rsatgan bo‘lsa, tatar siyosiy arbobi Ismoil Shoahmedov “Туркестанский край” gazetasining muharriri bo‘lib ishlagan.

1912-yili Buxoro jadidlari asos solgan “Buxoroyi sharif” va “Turon” gazetalarining muharriri ozarbayjonlik Mirzo Jalol Yusufzoda edi. “Buxoroyi sharif” gazetasi sahifalarida u o‘zining islohotparvar Qoyalari aks etgan maqolalarini chop qilib borgan. Gazetada jami 200 dan ortiq maqola, risola, suhbat, xatlarga javoblari va xabarlari bosilgan. Shuningdek, “Buxoroyi sharif”da 40 dan ortiq she’rlari ham o‘rin olgan. Yana qator maqolalari “Turon” gazetasi sahifalarida chop etilgan. Mirzo Jalol Yusufzodaning maqola, she’r va risolalarida ta’lim tizimidagi muammolar va ularni bartaraf qilish bo‘yicha tavsiyalar berilgan. Taraqqiyparvar xalqni ilm olishga hamda Kavkaz va Volgabo‘yidagi musulmon qardoshlarining ta’lim berish tajribasini o‘rganishga undagan.

O‘zbek va tatar taraqqiyparvarlarining o‘zaro hamkorligi natijasida 1917-yil iyuldan chop etila boshlagan “Chayon” jurnaliga Xalif Tulakov va Ibrohim Tohiriy muharrirlik qilganlar. Jurnalning jami 30 ta soni chiqib ulgurgan. Uning faoliyati 1918-yilning oxirida Turkiston ASSR Xalq komissarligining milliy ishlar bo‘limi tomonidan to‘xtatilgan. Turkistonda chop etilayotgan gazeta va jurnallarda tatarlar nafaqat muharrir, tashkilotchi, harf teruvchi sifatida, balki matbuot sahifalarini davrning dolzarb maqolalari bilan boyitib boruvchi mualliflar bo‘lib ham xizmat qilganlar.

Ta’lim islohi yo‘lidagi harakatlar

1917-yil boshidan Turkistonda siyosiy jamiyatlar tuzish uchun harakatlar faollashadi. Shu yilning may oyida Ozarbayjondagi “Ismoiliya” tashkilotidan yordam tariqasida Muhammadamin Afandizoda Qo‘qonga kelib, Obidjon Mahmudov bilan “Turk adami markaziyat firqasi”ning Qo‘qon bo‘limini tashkil etgan.

1917-yil yozida esa Muhammadamin Afandizoda va uning sherigi Piri Mursalzoda Toshkentga keladi va “Turon” jamiyati negizida firqa markazini ochadi. 1917-yil 3-avgust kuni kechqurun Toshkent shahrida “Sho‘royi Islomiya” jamiyati binosida “Turk adami markaziyat firqasi” yig‘ilishi bo‘lgan. Ushbu tadbirda Muhammadamin Afandizoda firqaning maqsad va rejalari xususida ma’ruza qiladi. “Turk adami markaziyati firqasi” oldida turgan muhim vazifalardan biri Turkistonda oliy ma’lumotli milliy kadrlar tayyorlash masalasi edi. Buning uchun firqa a’zolari 1917-yil 8 — 10-sentyabrda Toshkentda bo‘lib o‘tgan Turkiston musulmonlarining II qurultoyida dorilfunun tashkil etish masalasiga alohida e’tibor qaratgan.

1918-yil 3-may kuni komissiyaning navbatdan tashqari majlisi bo‘lib, Turkiston musulmon xalq dorilfununi rahbariyatiga saylov bo‘lgan. Munavvarqori Abdurashidxonov rais (rektor), Iso To‘xtaboyev raisning birinchi muovini, tatar taraqqiyparvarlari — Burhon Habib ikkinchi muovin, Muxtor Bakir sarkotib, toshkentlik ma’rifatparvar Abdulsami’ qori xazinador etib saylangan. 1918-yil 31-may kuni Turkiston musulmon xalq dorilfununi ochilgan. Va shu kundan boshlab Turkiston musulmon xalq dorilfununining nashri sifatida Muxtor Bakir muharrirligida Toshkentda “Xalq dorilfununi” gazetasi chop etila boshlagan.

1917-yil yozida Toshkent shahrida Munavvarqori Abdurashidxonov boshchiligidagi taraqqiyparvarlar va turk zobitlari “Ittihodi taraqqiyparvar” tashkilotini tuzadi. Turk zobiti Usmonbek ushbu tashkilot raisi etib tayinlangan. “Ittihodi taraqqiyparvar” bolsheviklarning mustamlakachilik siyosatini tanqid qilish, yoshlarni siyosiy faollashtirish va maktab ishlarini isloh qilish bilan mashg‘ul bo‘lgan. Jamiyatning oldida turgan asosiy vazifalar: yoshlarni a’zolikka jalb etish, mutaassib ruhoniylar bilan kurash olib borish, maktab ishlarini tartibga solishdan iborat bo‘lgan. Dasturda belgilangan uchinchi vazifa jamiyat a’zolari tomonidan to‘liq bajarilgan.

1918-yili “Ittihodi taraqqiyparvar” jamiyati “Ittihod va taraqqiy” deb nomlangan. Toshkentda bolsheviklarning kuchayib borishi natijasida “Ittihod va taraqqiy” tashkiloti markazini 1919-yili Buxoro shahriga ko‘chirishadi. Tashkilot nomi ham o‘zgartirilib, “Milliy ittihod” deb ataladi. Tashkilotning markazida dastlab turk zobitlaridan Muhammadbey, Sulaymon Sami, keyinchalik Sadriddinxon Sharifxo‘jayev, Sa’dulla Tursunxo‘jayev, Munavvarqori Abdurashidxonov turgan. Bu siyosiy uyushmaga jadidlardan tashqari, ulamolar va savdogarlar ham a’zo bo‘lgan.

“Milliy ittihod” tashkilotining asosiy maqsadi bolsheviklarning Turkistondagi ta’sirini pasaytirish va mahalliy komissarliklarning mustaqilligi uchun kurashdan iborat bo‘lgan.

1921-1922-yillari “Milliy ittihod” tashkilotiga Boshqirdiston avtonomiyasi hukumatining sobiq rahbari, turkiy xalqlar ozodligi uchun kurashgan Ahmad Zaki Validiy rahbarlik qiladi. 1921-yildan “Milliy ittihod”ning nomi “Turkiston milliy birligi” deb o‘zgartiriladi. 1921-yil 2 — 5-avgustda Turkiston milliy birligining birinchi kongressi bo‘lib, unda tashkilot muhri tasdiqlangan. 1921-yil 5 — 7-sentyabrda Samarqandda Turkiston milliy birligining ikkinchi kongressi bo‘lib o‘tadi. Unda tashkilotning 24 banddan iborat Nizomi qabul qilinadi, Turkiston bayrog‘i tasdiqlangan.

Hukumat ishlaridagi faoliyat

1920-yili Buxoro Xalq Sovet Respublikasi tuzilgach, hukumat rahbarlari turk zobitlarini mudofaa ishlari va harbiy ta’lim sohalariga jalb qiladi. Turk zobiti Ali Rizobeyga Buxoro hukumati harbiy vazirining o‘rinbosari vazifasi yuklatilgan. U Buxoro hukumatida harbiy sohadagi ishlarni tashkil etish bilan bir paytda Ahmad Zaki Validiyning ko‘magi ostida Sibirda surgunda bo‘lgan turk zobitlarini asirlikdan qutqarishga harakat qilgan. U jami 985 nafar turk harbiy asirini ozod etishda jonbozlik ko‘rsatadi.

Buxoro Xalq Sovet Respublikasi hukumati maorif sohasini rivojlantirish ishlariga tatar mutaxassislari tajribasidan keng foydalangan. Maorif noziri Qori Yo‘ldosh Po‘latov turkiy xalq vakillaridan (tatar, boshqird, ozarbayjon, turk) savodli, malakaviy tajribaga ega, ijodiy qobiliyatli shaxslarni o‘zining rahbarligidagi nozirlikda ishlash uchun taklif qilgan. Qozon ma’rifiy va adabiy muhitida voyaga yetgan, tatar millatiga mansub Mahmud Suboh Buxoro Respublikasi hukumatining dastlabki yillarida maorif nozirligi umumiy ishlar bo‘limi mudiri lavozimiga taklif etilgan va samarali xizmat qilgan.

Mahmud Suboh malakali kadrlar tayyorlash uchun hamma yoshlarni xorijda o‘qitib bo‘lmasligini ta’kidlab, Buxorodagi o‘quv muassasalarini zamon talablariga moslashtirish masalasini hal etishni kun tartibiga qo‘ygan. Maktablarni ta’mirlash bilan bog‘liq ishlardagi mas’uliyatsizlik, o‘quv kurslaridagi yuzakilik hamda soxtakorliklar, mutaxassislarning tajribasizligi masalalarini keskin tanqid qilgan va: *“Qat’iy tartib va intizomsiz hukumatgina, maktabgina emas, bir oila ham yashay olmaydur. Eshkak tutmoqni bilmagan ma’murlar hukumat qayiqlariga o‘ltirmaganlari ma’qul”*, deb ko‘rsatma bergan.

1921-yili Buxoro Xalq Sovet Respublikasi hukumati tomonidan o‘zbek tilini davlat tili sifatida qo‘llash to‘g‘risida maxsus qonun imzolangan va unga ko‘ra hukumat idoralarida kim o‘zbek tilida ish tutmasa, jarimaga tortilishi belgilangan. Ammo qonun qabul qilinganiga bir yil bo‘lsa-da, hukumat idoralaridagi hujjatlarning yarmi rus tilida yuritilayotganiga Mahmud Suboh jim qarab tura olmagan. O‘zining “Til masalasi” maqolasida til sofligini saqlash to‘g‘risida fikr-mulohazalarini taqdim etib, *“Hukumat tili shu hukumatning xo‘jasi bo‘lg‘on xalqning ona tilidur. Shu til bilan uning adabiyoti negizlangan, qalbining teran yerindan o‘rin topg‘ondur”*, deb ta’riflagan.

Buxoro Xalq Sovet Respublikasida teatr ishlarini rivojlantirish harakatlarida ham tatar ziyolilari ishtirok etgan. Tatar ziyolisi Basir No‘g‘ayev respublika teatrlarining bosh rejissyori qilib tayinlangan. Unga teatr sohasidagi muammolarni bartaraf etish, sifatli sahna asarlari yaratish ishlarini boshqarish vazifasi yuklatilgan.

Ko‘rinib turibdiki, jadidlar Turkiston birligi uchun kurashgan. Ta’lim islohotlarida bir-birlariga ko‘makchi bo‘lgan. Milliy matbuotga asos solgan, teatr sohasida ham yaxshigina yutuqlarni qo‘lga kiritgan. Milliy davlatchilikni tiklash uchun siyosiy uyushmalar tuzib, Turkiston ozodligi uchun kurashda ham jipslashib harakat qilgan.

Dilnoza JAMOLOVA,
O‘zFA Tarix instituti direktorining ilmiy ishlar bo‘yicha o‘rinbosari, tarix fanlari doktori.

ASRLAR TO‘FONIDAN OMON QOLGAN MINORA

Surxondaryoning tarixi juda boy. Asrlar davomida bu zamin arxeologlar, tarixchilar va betakror arxitekturani sevuvchi sayyohlarni o‘ziga maftun etib keladi.

Biz Jarqo‘rg‘on minorasi tarixiga qiziqib, bu zaminda yana bir katta xazina mavjudligiga amin bo‘ldik. Ushbu obida tarixining boshlanishi buyuk saljuqiy sultonlaridan biri bo‘lgan Sulton Sanjar hukmronligi davriga to‘g‘ri keladi.

Moziyga boqib...

Xo‘sh, Jarqo‘rg‘on minorasi qaysi jihatlari bilan e’tiborimizni tortadi?

— Surxon vohasidagi qadimiy obidalardan biri — bu Jarqo‘rg‘on minorasi, — deydi tarixchi Hasan Saidov. — U Qumqo‘rg‘on va Termiz tumanlari o‘rtasidagi Minor qishlog‘ida joylashgan. Inshoot peshtoqida saqlanib qolgan yozuvlar uning 1108-1109-yillarda qurilganidan dalolat beradi. Minora asosida me’mor nomi Ali ibn Muhammad Saraxsiy va u barpo etilgan sana yozilgan. Shuningdek, obidaning tepa qismidagi kitobada “Basmala”dan so‘ng Qur’oni Karimning “Tavba” surasi 18-oyatining bir qismi kufiy xatida bitilgan. U arxeolog va sharqshunos olim Vasiliy Shishkin tomonidan o‘qilgan. Minoraning umumiy balandligi 50 metrga yaqin bo‘lib, hozir uning omon qolgan qismi 21,6 metrni tashkil etadi. Jarqo‘rg‘on qadimiy arxitekturasining bu namunasi qurilishida oddiy g‘isht, ravoqlar va epigrafik hoshiyalar juda ustalik bilan qo‘llanilgan. Minoraning asosi 8 qirrali baland kursiga o‘rnatilgan. Har bir qirraning markazida ravoqli taxmonchalar ishlangan. Ana shunday taxmonchalardan birida joylashgan eshik orqali ichki qismdagi aylanma zinaga chiqilgan. Barcha minora kabi Jarqo‘rg‘on obidasi ham gumbazsimon muazzinxona bilan yakunlangan.

— Jarqo‘rg‘on minorasi me’moriy-badiiy yechimi bilan Markaziy Osiyoda noyob tarixiy inshoot sanaladi, — davom etadi tarixchi. — U noodatiy dekorativ bezak bilan bezatilgan. G‘ishtlarning mahorat bilan archa naqshida terilganligi chambarchaslik kasb etgan. Quyidan qarasangiz, uning g‘ishtlari mato kabi ko‘rinadi. Minora bir-biriga ulashgan o‘n olti yarim ustundan iborat. Bu bezak ko‘proq Shimoliy Hindistonda qo‘llanilgan. Shuningdek, Xuroson minoralariga ham yaqin turadi.

Inshootning siljigan o‘qi tufayli u tugallanmagan yoki qisman vayron bo‘lgan deb taxmin qilinadi. 1879-yili yaqin atrofda qadimiy masjidning xarobalari topilgan. Bu me’moriy qurilish alohida amalga oshirilganidan dalolat beradi. Minoraga nima bo‘lganligi va nima uchun masjid vayron qilinganligi to‘g‘risida tarixchilar bir fikrga kela olmagan. Yangi imorat qurish uchun binolar buzilgan, degan taxminlar ham bor.

Mustaqillik yillarida yurtimizda tarixiy-madaniy yodgorliklarni muhofaza qilish, ta’mirlash-tiklash ishlari davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Shular qatorida Jarqo‘rg‘on minorasi ham ta’mirlanib, atrofi obodonlashtirildi. U o‘z tarovati bilan har qanday sayyohni hayratga solishi, shubhasiz. Zaminimizda ana shunday bebaho obidalar, yuksak me’morchilik namunalari borligi bizni g‘oyat quvontirdi.



Farhod ESONOV
(“Xalq so‘zi”).

Ogohlik

YOSHLAR MA’NAVIYATIGA TAHDID

yoxud farzandlaringizni kvadroberlardan asrang!

Yangi asrda axborot tezligi taraqqiyotga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi barobarida, bir qancha muammolarni ham keltirib chiqarmoqda. Internet va uyali telefon orqali yoshlarga qilinayotgan xurujlardan saqlanish eng katta muammolardan biriga aylandi. Ehtiyot choralari izlanyapti, lekin bu yechim va choralarning ko‘pi faqat nazariy, ularni amalda qo‘llash qiyin. Bulardan tashqari, turli oqimlar va “ommaviy madaniyat” niqobi ostidagi axloqiy buzuqlik va zo‘ravonliklar yoshlar ma’naviyatiga tahdid solib turibdi.

Ma’naviyatimizga qarshi qaratilgan har qanday hujum — bu millatimizni millat qiladigan, asrlar davomida ajdodlardan avlodlarga o‘tib kelayotgan o‘ziga xos va mos xususiyatlarimizga, milliy g‘urur, milliy iftixor tuyg‘usiga, bizni doimiy ravishda tadrijiy taraqqiyotga chorlaydigan, ozod va farovon hayot barpo etishdek ezgu maqsadlarimizga katta zarba beradigan mudhish xavf-xatarni anglatadi.

Bugungi kunda zamonaviy bolalar va o‘spirinlar orasida “kvadrobika” degan submadaniyat shakllanmoqda. Uning domiga ilinganlar niqob va kostyumlar kiyadi, xuddi hayvon kabi to‘rt oyoq bilan harakat qiladi, vovullaydi yoki miyovlaydi, ba’zida esa odamlarga ham hujum uyushtiradi. Ommaviy axborot vositalarida kvadroberlar ogoh bo‘lishga chaqirilyapti va ular ko‘plab mamlakatlardagi jamiyatlarni xavotirga solmoqda.

Kvadroberlar o‘zi kim? Ular, asosan, hayvonlarning odat va harakatlariga taqlid qiluvchilardir. Ular ma’lum hayvon, masalan, kuchuk, mushuk, maymun kabilarni aks ettiruvchi aksessuar va kiyimlar bilan, dum, quloq, panjali qo‘lqop va niqoblar taqib, odamlar orasida o‘sha hayvonning harakatlari bilan namoyon bo‘ladi.

Mutaxassislar fikriga ko‘ra, hayvonlarga taqlid qilish g‘arbiy submadaniyat ostida ommalashmoqda. Kvadroberlar boshqa mamlakatlarda turli festival va tadbirlarda chiqish qilgan bo‘lsa, bugungi bolalar va o‘smirlar o‘zining muloqot doirasini ham shu usulda shakllantirib, do‘st orttirishga urinmoqda.

Shubhasiz, kvadrobikaning birdaniga ommalashuvi jiddiy tashvishlanishga yetarlicha asos bo‘la oladi. Ko‘cha-ko‘yda, ommaviy manzillarda hayvon tusidagi o‘smirlarning g‘ayritabiiy qiliqlari kvadrobika haqida eshitmagan insonni cho‘chitib, unga ruhiy zarba berishi, qo‘rqib ketgan kishi esa kvadroberga bexos jismoniy zarar yetkazib qo‘yishi ehtimoli ham yo‘q emas.

Jamiyatda har tomonlama turlilik bo‘lishi tabiiy, albatta. Biroq bola o‘zini omma oldida hayvon ko‘rinishida talqin etishining sababi, oila a’zolarining bunga munosabati, qanday rozi bo‘lgani-yu, uning ruhiyatida nimalar yuz berayotganini o‘ylashning o‘zi dilni xira qiladi.

Haqiqatan ham, o‘smirlik davrida hali “o‘zini” topib ulgurmagan bolalarda atrofdagilardan, ayniqsa, ijtimoiy tarmoqlardan namuna olishga moyillik yuqori bo‘ladi. Shu bois ruhshunoslar bolaning erkinligini, ayniqsa, o‘smirlik davrigacha bo‘lgan muddatda nazoratda tutib, vaqtini foydali mashg‘ulotlarga yo‘naltirish zarurligini ta’kidlaydi.

Bugungi shiddatli davrda chinakam ma’naviyatli va ma’rifatli shaxsgina o‘z qadrini bilishi, milliy qadriyatlarni, o‘zligini anglashi, erkin va ozod jamiyatda yashash, mustaqil davlatimizning jahon hamjamiyatida o‘ziga munosib o‘rin egallashi uchun fidoyilik bilan kurasha olishi mumkin.

Biz yoshlarimizni ona Vatanga muhabbat, boy tariximizga, ota-bobolarimizning muqaddas diniga sadoqat ruhida tarbiyalash uchun, avvalo, ularning qalbi va ongida mafkuraviy immunitetni kuchaytirishimiz zarur. Toki yoshlarimiz milliy o‘zligini, shu bilan birga, dunyoni chuqur anglaydigan, zamon bilan hamnafas qadam tashlaydigan insonlar bo‘lib yetishsin.

Yangi O‘zbekistonimizni barpo etishda ma’nan sog‘lom, jismonan baquvvat yoshlarni tarbiyalash barchamizning muqaddas burchimizdir.

Murodbek RAHMONBERDIYEV,
O‘zbekiston yoshlar ittifoqi Jizzax viloyati Kengashi raisi, xalq deputatlari Jizzax viloyati Kengashi deputati.

O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasida “Yangi O‘zbekiston kitob va kutubxonadan boshlanadi” nomli qardosh xalqlar yozuvchi hamda shoirlari kitoblari ko‘rgazmasi tashkil etildi.

Xalq so‘zi
Narodnoe slovo

MUASSISLAR:
O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashi
O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashi

Bosh muharrir O‘tkir RAHMAT

2020-yil 25-martda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro‘yxatga olingan. Nashr indeksi — 229. Buyurtma G-1142. 11 728 nusxada bosildi. Hajmi — 2 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qog‘oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma’lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.

TELEFONLAR:
Devonxona 71-259-74-51; kotibiyat 71-259-74-53;
e’lonlar 71-259-74-55.

ISSN 2010-8788

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.

Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.

Gazeta tahririyat kompyuter markazida terildi hamda operator M. Begmuratov tomonidan sahifalandi.

Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas’ul. Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:
100066,
Toshkent shahri,
Islom Karimov ko‘chasi, 55-uy.
Navbatchi muharrir Z. Xudoyshukurov.
Musahhih S. Islomov.

“Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxona manzili: Buyuk Turon ko’chasi, 41. O‘zA yakuni — 22.00 Topshirildi — 00.40 1 2 3 4 5 6